



**WORLD BULLETIN  
PUBLISHING**  
Online Publishing Hub

# World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 03, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

## USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS

Sodiqova U. U.

Lecturer, Department of Applied Mathematics  
Karshi State University

### Abstract

The article examines the pedagogical significance of using modern information and multimedia technologies in the education system, particularly electronic educational resources and multimedia presentations. The role of multimedia tools in enhancing the effectiveness of understanding and mastering learning materials in primary school mathematics lessons is analyzed. The study highlights the possibilities of activating students' cognitive activity, expanding opportunities for individualized learning, and improving the didactic effectiveness of the educational process through slides prepared on the basis of electronic teaching aids, animation, and visual effects. Practical approaches to the application of multimedia technologies are demonstrated using examples of exercises developed with the PowerPoint software.

**Keywords:** Information technologies, multimedia technologies, electronic educational resources, primary education, mathematics lesson, multimedia presentations, educational effectiveness.

### Introduction

#### BOSHLANG'ICH SINFLARNING MATEMATIKA DARSLARIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASDAN FOYDALANISH

Sodiqova Umida Uchqun qizi

Qarshi Davlat universiteti

Amaliy matematika kafedrası o'qituvchisi



WORLD BULLETIN  
PUBLISHING

Online Publishing Hub

# World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 03, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

## Annotatsiya:

Maqolada ta'lim tizimida zamonaviy axborot va multimedia texnologiyalaridan, xususan, elektron o'quv adabiyotlari va multimediyaviy slaydlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf matematika darslarini tashkil etishda multimedia vositalarining o'quv materialini tushunish va o'zlashtirish samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Elektron o'quv qo'llanmalar, animatsiya va vizual effektlar asosida tayyorlangan slaydlar orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, individual ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim jarayonining didaktik samaradorligini ta'minlash masalalari ochib berilgan. PowerPoint dasturi asosida yaratilgan mashqlar misolida multimediyaviy texnologiyalarni amaliy qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, multimedia texnologiyalari, elektron o'quv adabiyotlari, boshlang'ich ta'lim, matematika darsi, multimediyaviy slaydlar, ta'lim samaradorligi.

Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etilmoqda. Bugungi kunga kelib ta'lim tizimini rivojlantirish va bo'lajak kadrlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda qator imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish", Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish bandining 35-moddasida "O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy



pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi."<sup>1</sup>, -deb ta'kidlangan.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimida yuqori samara berayotgan axborot va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va amalda qo'llash jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmogda.

Ma'lumki, axborot texnologiyasining asosiy komponentlariga-matn, jadval, grafika, tasvir, audio, video komponentlar kiradilar. Amaliy ishlarda esa yuqorida keltirilgan komponentlardan foydalaniladi.

Multimedia texnologiyasida yuqoridagi komponentlardan tashqari, animatsiya, musiqa va turli bezaklar ishtirok etadilar, hamda ular multimedia texnologiyasini axborot texnologiyasidan farqlantiradilar.

Umum o'rta ta'lim maktablarining ta'lim jarayonida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bu- fanlar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari,shu jumladan,uning uning muhim komponenti bo'lgan elektron o'quv adabiyotlaridan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik dasturiy vositalar yaratish hisoblanadi.

Elektron o'quv adabiyotlari asosida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilarni o'qitish natijasida to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, inson eshitish a'zolariga hisbatan ko'rish a'zolari yordamida olingan ma'lumotlarni 4-5 karra ortiq eslab qolishi mumkin. Chunki, eshitish a'zolari yordamida olinayotgan ma'lumotlar qayta kodlashtirilmay to'g'ridan -to'g'ri xotirasiga uzatiladi va uzoq muddat saqlanadi.

O'quv jarayonida multimediali elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish pedagogik va psixologik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo'lib,ular quyidagilarga imkon beradi.

- o'quv materiallarni o'zlashtirish va tushunish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ilyustrativ(rasmlar,animatsiyalar va boshqalar) materiallar bilan ishlash;
- ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga tayyorlanganligini e'tiborga olish;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>



- individual ta`lim olish shaklini tanlash imkonini yaratish;
- ta`lim olish sur`ati (tezligi) ni mustaqil tanlash;
- zamonaviy kompyuterlarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- ta`lim oluvchining bilish faoliyatini modellashtirish;
- ta`lim oluvchining psixologik tayyorgarligini oshirish;

Mamlakatimizda boshlang`ich ta`lim jarayonida kompyuterdan foydalanish borasida ayrim tajribalar mavjud bo`lib, kompyuter savodxonligini tarkib toptirishga qaratilgan ta`lim muassasalari faoliyat ko`rsatmoqda. Kichik maktab yoshidagi o`quvchini kompyuter savodxonligini shakllantirish, bunda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutish kabi masalalar hal etilishi lozim.

Boshlang`ich sinflarning joriy matematika darsligidagi ayrim mashqlarni quyidagi usullarda elektron shaklga (variantga) o`tkazish mumkin, ya`ni maxsus kompyuter dasturlari yordamida, skanelash usuli, Power Point, Paint va Word dasturlari yordamida.

Boshlang`ich sinflarning matematika darsligini multimedaviy kompyuter texnologiyasi asosida o`tish uchun birinchi navbatda, multimedaviy slayd tayyorlash lozim.

Quyida Power Point dasturi asosida tayyorlangan slaydlardan namunalar keltiramiz.


1 – slayd. (1-rasm ) “10 sonini hosil qilish” mashqini bajarishga bag`ishlangan bo`lib, slaydning birinchi qismida dastlabki topshiriq, ikkinchi qismida topshiriq bajarilgan holat aks ettiriladi.



1-rasm. 10 sonini hosil qilishga oid slayd



## 10 sonini hosil qiling!



### 2-rasm. 10 sonini hosil qilish natijasiga oid slayd

Slaydga berilgan multimediamiy effekt: slayd namoyishga qo`yilgach monitor ekranidagi 2-rasmdagi bo`sh kataklarga birin – ketin 10 sonini xosil qilishga oid sonlar harakatlanib joylashaveradi.

Slayddagi bezaklar: Slayd ta`sirchan bo`lishi uchun slayda turli tasviriy ma`lumotlar berilgan.

2 – Slayd. Slayd “100 sonini hosil qilish”ga qaratilgan. Rasmda bo`sh kataklar berilgan. Topshiriq: bo`sh kataklarni mos sonlar bilan to`ldirish.

Slaydga berilgan multimediamiy effekt: slayd namoyishga qo`yilgach monitor ekranida rasmdagi bo`sh kataklarga sonlar harakatlanib kelib joylashaveradi.

2-слайд. “100 sonini hosil qilish”ga oid mashq bajarilgan. Mashqni kompyuterda bajarish uchun 3- rasmning yuqori qismidagi bo`sh kataklarni to`g`ri to`ldirish talab qilinadi.



### 3-rasm. 100 sonini hosil qilishga oid slayd




#### 4-rasm. 100 sonini hosil qilishga oid slayd

Slaydga berilgan multimediamiy effekt: slayd namoyishga qo`yilgach monitor ekraniga sonlar harakatlanib joylashaveradi.

Slayddagi bezaklar: Monitor, soat, qaychi, kitob, matematik amallar.

### Misolni yeching!



Demak, multimedia zamonaviy axborot texnologiyasining asosiy yo`nalishi bo`lib, boshlang`ich sinf matematika darsliklaridagi o`quv materialini elektron shaklga o`tkazish va yaratilgan slaydlardan dars jaroyonida foydalanish ta`lim-tarbiya saaradorligini oshrish uchun zamin xozirlaydi.



**WORLD BULLETIN  
PUBLISHING**  
Online Publishing Hub

# World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 03, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr, O‘RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. J.O‘.Muhammadiyev, Z.R.Raxmonov. Matematika va informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “ZEBO PRINT” -200 b.2021 y
3. I.V. Repyova Matematika.1 – sinf. I va II-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Toshkent-2023